XALQ DEPUTATLARI YANGIQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-19-168-6-90-K/25 Yangiqo‘rg‘on tumani

Yangiqo‘rg‘on tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-17-165-6-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 02/10-7123-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-17-165-6-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Yangiqo‘rg‘on tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari **169 938 801 ming.so‘m** va xarajatlari esa **169 938 801 ming.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Yangiqo‘rg‘on tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **391 793 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq, tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq hamda 2026-yil uchun Namangan viloyatining tuman va (shaxarlar) byudjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **2 094 127 ming.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib

bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari R.Shomirzaev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Vaxabov), tuman soliq inspeksiyasi (N.Alimov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

- budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;
- o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;
- budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;
- tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;
- o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;
- budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (I.Qodirov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari R.Shomirzaev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **NAJMIDDINOV ASADULLA IKRAMOVICH**

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-19-168-6-90-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Yangiqo‘rg‘on tuman byudjeti daromadlarining 2026-yilgi prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘m

№	DAROMAD TURLARI	Jami kontingent prognoz	shundan,				Mahalliy byudjet prognoz
			MRI	Hudud	shundan		
					DSB	DSI	
I.	**JAMI**	**244 694 433**	**6 616 000**	**238 078 433**	**168 955 000**	**69 123 433**	**169 938 801**
1	Foyda solig‘i	7 522 000		7 522 000	7 522 000		752 200
2	Norezidentlar foydasidan soliq	44 000		44 000	44 000		
3	Aylanmadan olinadigan soliq	9 756 000		9 756 000		9 756 000	9 756 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	93 211 000	1 930 000	91 281 000	79 281 000	12 000 000	75 930 750
	shundan, mol-mulkini ijaraga berishdan tushumlar	961 000	5 000	956 000	216 000	740 000	961 000
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	18 519 000		18 519 000	18 519 000		2 259 318
6	**Aksiz solig‘i**	**22 717 000**	**38 000**	**22 679 000**	**22 679 000**		**4 535 800**
	yakuniy iste’molchi (benzin,dizel va gaz uchun)	22 717 000	38 000	22 679 000	22 679 000		4 535 800
7	**Mol-mulk solig‘i**	**18 650 000**	**938 000**	**17 712 000**	**4 488 000**	**13 224 000**	**17 712 000**
	yuridik shaxslar	6 818 000	938 000	5 880 000	4 488 000	1 392 000	5 880 000
	jismoniy shaxslar	11 832 000		11 832 000		11 832 000	11 832 000
8	**Yer solig‘i**	**40 192 433**	**884 000**	**39 308 433**	**7 339 000**	**31 969 433**	**39 308 433**
	yuridik shaxslar	13 911 000	884 000	13 027 000	7 339 000	5 688 000	13 027 000
	jismoniy shaxslar	26 281 433		26 281 433		26 281 433	26 281 433
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	2 919 000	1 412 000	1 507 000	1 507 000		2 919 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 888 000	1 414 000	3 474 000	1 474 000	2 000 000	3 548 800
11	**Boshqalar**	**26 276 000**		**26 276 000**	**26 102 000**	**174 000**	**13 216 500**
	DUK sof foydasidan ajratmalar	17 000		17 000	17 000		

	Davlat boji	12 005 000		12 005 000	12 005 000		6 002 500
	Yig‘imlar	3 181 000		3 181 000	3 181 000		1 590 500
	Jarimalar	10 899 000		10 899 000	10 899 000		5 449 500
	Davlat mulkini ijarasi	174 000		174 000		174 000	174 000

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-19-168-6-90-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Yangiqo‘rg‘on tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori

Ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Yangiqo‘rg‘on tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**169 938 801**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	51 181 258
	shundan:	
	"Mening maktabim"	4 078 800
3	Madaniyat bo‘limi	7 457 014
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	8 001 288
5	Sport bo‘limi	12 069 550
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 529 156
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 178 677
8	Irrigatsiya bo‘limi	3 224 141
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 488 225
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	279 252
10	Hokimiyat	56 704 753
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	35 308 211
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	2 281 000
	Zahira jamg‘armasi	2 094 127
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	778 319
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	41 439
	Axborot-kutubxona markazlari	736 880
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	20 961 383

13	Boshqa tashkilotlar	2 085 785

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-19-168-6-90-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026 yil uchun Namangan viloyatining tuman va (shaxarlar) byudjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar

foiz xisobida

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Yangiqo‘rg‘on tumani	0%	83%	100%	17%	0%	10%	100%	90%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	20%	100%	80%

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar			
Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB

0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%

Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
Tuman (shahar) lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar) lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar) lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar) lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
100%	0%	50%	50%	50%	50%	50%	50%

QQS				Jismoniy shaxslarni mol mulkini ijaraga berishdan			
Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
0%	61%	100%	39%	100%	100%	0%	0%